BUXORO VILOYATI SHOFIRKON TUMAN HOKIMINING
QARORI

201100, Shofirkon tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 4-uy. Tel: (365) 502-20-04, faks: 502-25-47, e-mail: info@shofirkon.uz, shofirkon.t@exat.uz

2024 - yil 24 - aprel 179-2-41-Q/24 Shofirkon tuman hokimligi

Tumandagi ayrim maktabgacha va maktab bo‘limiga qarashli binolarni rekonstruksiya qilishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-noyabrdagi “Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligini va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-425-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, joriy yil “Tashabbusli byudjet” 1-mavsum obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash ishlarini amalga oshirish hamda Buxoro viloyat hokimligi huzuridagi yagona buyurtmachi xizmati-injiniring kompaniyasi DUKning 2024-yil 22-apreldagi 1/514-05-sonli xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-noyabrdagi “Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligini va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-425-sonli qarori ijrosi ta’minlansin.

2. Buxoro viloyat hokimligi huzuridagi yagona buyurtmachi xizmati-injiniring kompaniyasi DUKning 2024-yil 22-apreldagi 1/514-05-sonli xatiga asosan tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli:

- Shofirkon tumanidagi Bog‘iafzal mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 16-umumta’lim maktabi binosi atrofini devor bilan o‘rab olish,

maktabning eski binosini mukammal ta’mirlash;

- Shofirkon tumanidagi Horin mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 22-umumta’lim maktabi hududida 100 o‘rinli oshxona binosini qurish;

- Shofirkon tumanidagi Kotiyon mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 40-umumta’lim maktabi hududida 80 o‘rinli oshxona binosini qurish;

- Shofirkon tumanidagi Horin mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 48-umumta’lim maktabi hududida qo‘shimcha 80 o‘rinli o‘quv binosini qurish;

- Shofirkon tumanidagi Xoja Orif mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 55-IDUM binolarini kapital ta’mirlash va kirish joyida nazorat o‘tkazish punktini qurish uchun ruxsat berilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari R.G‘afurov, tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (R.Ikromov) hamda Davlat kadastrlar palatasi Buxoro viloyat boshqarmasi Shofirkon tuman bo‘limi (A.Saidov) bilan birgalikda:

- Shofirkon tumanidagi Bog‘iafzal mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 16-umumta’lim maktabi binosi atrofini devor bilan o‘rab olish, maktabning eski binosini mukammal ta’mirlash;

- Shofirkon tumanidagi Horin mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 22-umumta’lim maktabi hududida 100 o‘rinli oshxona binosini qurish;

- Shofirkon tumanidagi Kotiyon mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 40-umumta’lim maktabi hududida 80 o‘rinli oshxona binosini qurish;

- Shofirkon tumanidagi Horin mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 48-umumta’lim maktabi hududida qo‘shimcha 80 o‘rinli o‘quv binosini qurish;

- Shofirkon tumanidagi Xoja Orif mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan 55-IDUM inolarini kapital ta’mirlash va kirish joyida nazorat o‘tkazish punktini qurish uchun yer maydonlari joylashuvini tegishli tashkilotlar bilan kelishish;

arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i hamda obyekt loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashga buyurtma berish;

obyekt qurilish ishlarini sifatli bajarilishi va o‘z muddatida foydalanishga

topshirilishini nazoratga olish topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining o‘rinbosari R.G‘afurov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Fayzilloyev**